

Madina DALIEVA,

Ingliz tilini o'qitish metodikasi №3 kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail:m.dalieva@gmail.com

Tel: +998 97 7372112

O'zDJTU f.f.d.(DSc) X.D.Paluanova taqrizi ostida

LISONIY TERMINLARNING SHAKLLANISHIDA KOGNITIV JARAYONLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Bugungi kunda zamonuslikning sohalari ichida terminologiya alohida o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi asosiy roli uning adabiy til leksikasining mustaqil qatlami sifatida e'tirof etilishidir. Terminologiya adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajralib chiqqan soha sifatida ham o'rganiladi. Mazkur maqolada muallif terminologiyaning ko'p ma'noliligi xususida so'z yuritgan bo'lib, bu boradagi olimlarning nazariyalaridan misollar keltirgan holda o'z fikrlarini isbotlashga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy til, o'zbek tili, ingliz tili, rus tili, termin, terminologiya, terminologik birlik, terminologik leksika, umumiy terminologiya, xususiy terminologiya.

THE IMPORTANCE OF COGNITIVE PROCESS IN THE FORMATION OF LINGUISTIC TERMS

Annotatsiya

Terminology has a special place among the fields of modern linguistics. The role of terminology in the structure of the language dictionary is its independent recognition of the lexicon of the literary language. Terminology is also studied as a field separated from the vocabulary of literary language. In this article, the author spoke about the ambiguity of terminology and tried to prove his point by giving examples from the theories of scientists.

Key words: Literary language, Uzbek language, English language, Russian language, term, terminology, terminological unit, terminological lexicon, general terminology, special terminology.

ЗНАЧЕНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

Терминология занимает особое место среди областей современного языкознания. Основная роль терминологии в структуре словаря языка – признание ее самостоятельным пластом лексики литературного языка. Терминология также изучается как отрасль, обособленная от словарного запаса литературного языка. В данной статье автор рассказал о неоднозначности терминологии и попытался доказать свою точку зрения, приведя примеры из теорий ученых на этот счет.

Ключевые слова: Литературный язык, узбекский язык, английский язык, русский язык, термин, терминология, терминологическая единица, терминологический лексикон, общая терминология, специальная терминология.

Kirish. Terminologiya bu millatning o'tmishi, buguni va kelajagini ko'rsatuvchi oynadir. Terminologiyaga oid tadqiqotlardan ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi tarixi juda qadim zamonalarga borib taqladi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar o'zbek terminologiyasining, xususan, oddiy terminlar yig'indisidan muayyan bir sistema darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligi, shakllanishida, bиринчи o'rinda, o'z qatlam birliklarining o'rni beqiyos ekanligi ma'lum. Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam etgan ona tilidagi lisoniy birliklarning boyishi va bunda boshqa tillar ta'sirini nazariy tadqiq qilish tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro obro'yi oshib, dunyoning rivojlangan davlatlari, yirik siyosiy arboblari, fan, madaniyat va san'at vakillarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Mazkur holat xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan birga kechmoqda. Shu ma'noda rus, ingliz, boshqa xorijiy tillar va o'zbek tili munosabatlari, dialektlari, o'zlashma so'zlar, terminologiyasi, jargon va argotizmlari masalasi, o'zbek tilidagi o'zlashma terminlar, o'zlashma so'zlar, varvarizmlarning adabiy uslubda qo'llanishi, ularning fonetik, leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish bu tillarning aloqalari masalalarini yoritishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tilning terminologik qatlami asosiy birlik sifatida juda boy bo'lib, u turli tillar ta'sirida rivojlanib bormoqda. Mazkur mavzuda ko'plab monografiya, risola va maqolalar yaratilgan, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinib, ularda terminlarning lisoniy birliklar sathida tutgan o'rni, mohiyati, mavqeい haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, jahon tilshunosligida fonetika, leksika va grammatika, terminologiya yuzasidan bir qator ishlar qilingan. E.Vyuster, X.Felber, A.Ellis, J.Rayt, K.Brunner, E.Partridj, S.A.Chaplin, T.L.Kandelaki, G.O.Vinokur, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, I.V.Arned, B.A.Ilish, M.M.Makovskiy, N.Dmitriev, N.Baskakov, A.Reformaskiy, V.Danilenko va boshqa qator olimlarning xizmatlari tilshunoslikning shakllanishi, taraqqiy etishiga xizmat qilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida O.Azizov, I.Rasulov, X.Doniyorov, Sh.Rahmatullayev, H.Jamolkhonov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, R.Doniyorov, N.Mamatov, S.Ibrohimov, M.Abdiyev kabilarning ishlari katta ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi ilmiy-tekhnika taraqqiyoti davrida, axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal kirib borayotgan XXI asrda xorijiy tillarning ona tilimizga ta'siri juda katta. Jamiatda yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va texnikaviy o'zgarishlar o'zbek tiliga kirib kelayotgan terminologik birliklar sonining keskin ko'payishiga olib kelmoqda. Tilning statik holati uning ichki semantikasi va strukturasidagi o'zgarishlarga ta'sir qilishiga qaramasdan, bugungi o'zbek tili lug'at qatlamidagi o'zgarishlarga jadal sur'atda yuz berayotganligi ko'rinish turibdi. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida o'ziga xos tarzda amalga oshirildiki, tilimizdagi yangi hodisalarga baho berishga ba'zan tilshunoslarni ham imkon topmay qolishmoqda. Shu sababli terminologiyadagi keskin o'zgarishni har tomonlama o'rganish, uni tartibga solish masalalari, tillardagi terminologiya tarkibi, shakllanish jarayonlarini belgilash, terminlarning semantik, struktur va derivatsion imkoniyatlari, leksikografik talqinini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rinni va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til

leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutildi [6]. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi taskil qiladi. X.Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz [11; 85-89].

Tahhil va natijalar. Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos (logik)lar uchun termin-aniq obyekta tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tabbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Fan va texnikada termin-sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi. Fandagi har qanday rivojlanish, taraqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi.

Tamg'alangan (markerlangan) va tamg'alanmagan (markerlanmagan) birliklar nazariyasi mantiqiy (logik) bo'linishing rivojlanish va takomillashishida yangi qadam sanaladi. XX asrning 30- yillarda ushbu masala bilan yaqindan shug'ullangan Praga lingvistik maktabi (PLM) a'zolari (N.Trubetskoy, R.Yakobson) g'oyalaringin 60- yillarda matnga mashina (EHM) yordamida ishlov berish, ya'ni matnlarni kodlash va qaytakodlash, ma'lumotlarni mashina yordamida axtarish, matnni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish singari jarayonlarda o'ta mahsuldar ekanligi isbotlandi. Tamg'alanmagan birliklarning nol ko'rsatkichli, tamg'alangan birliklarning esa tamg'alanmagan birliklarga nisbatan qo'shimcha ma'lumot tashishi jihatidan farqlanishi aniqlandi. Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi. A.S. Gerdning mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mayjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarni aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir [4].

O.S. Axmanovaning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G. Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnimi belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir ko'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi [3].

V.P. Danilenkoning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning tranformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi [5; 9].

D.S. Lottening ishlarda terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakterga egaligini belgilaydi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'rni, mavqeい muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'rni, mavqeい bilan aniqlanadi. Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos kategorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmuи tarzida qaraladi [9; 78]. Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasalish prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi.

Muhokama. Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o'zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish befoyda, buning imkonii ham yo'q. Insoniyatning tabiatni bilish, anglash bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi tabiiy fanlar nomenklaturasidan inson tomonidan kashf etiladigan, yaratiladigan (ishlab chiqarish nomenklatura) texnik nomenklatura, shuningdek, xaridorbop tovarlar bilan ta'minlash, ularni sotish maqsadida maxsus yuzaga chiqariladigan savdo-sotiq nomenklaturasini farqlash lozim bo'ladi. Garchi har uchala nomenklatura ham manfaatdor subyektlar tomonidan yaratilsa-da, biroq ular turli asos, turli maqsad va turli prinsiplar negizida voqelanadi.

Nomenklatura va terminologiya o'rtasidagi prinsipial farqlardan biri – nomenlar, odatda, terminologik lug'atlarda qayd etilmaydi yoxud o'ta cheklangan miqdorda lug'atlardan o'rinn oladi. Fan turli sohalarining rivojlanishi jarayonida ayrim nomenlar terminlar tizimiga o'tishi, sof leksik nominativ birliklardan mantiqiy (logik) axborot, ma'lumot elementi, ya'ni ilm-fan terminiga aylanishi mumkin. Nomenklatura, garchi, tushunchaga aloqador bo'lsa-da, biroq u hisobsizdir. Muayyan fan terminologiyasining esa miqdori, soni aniq, zotan, ular tushunchalar sistemasini og'zaki tarzda ifodalaydi. Ma'lumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mayjud bo'lishi ma'qullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba'zan ikki yoki undan ortiq sinonim (dublet)lardan foydalanish ko'zga tashlanadi. Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama istiloh so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin ba'zi subyektlar nuqtayi nazarlar natijasida termin o'rnda atama derivatini qo'llash faolashdi.

Xulosa. Bir qaranganda, baynalmil o'zlashmaga har jihatdan mos tushgan o'z so'zining qo'llanishi ma'kuldek tuyuladi. Lekin termin o'zlashmasining ta'rifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. O'z vaqtida A.Hojiyev termin so'zini atama yasamasi bilan almashtirishning noto'g'ri ekanligi, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi [13; 22-25]. Shularni hisobga olgan holda, termin o'zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmlari, atama so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh o'zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish [10] o'zini oqlaydi.

Xullas, terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlanni o'zida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda aksini topadi: semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik munosabatga

kirishadi); vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi); semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarini ifodalaydi, ularning har biri o‘z ma’nosiga ko‘ra unikaldir); tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ularning boshqa sistemaga xosligiga to’sqinlik qilmaydi); shakllanish yo‘llari va vositalari (terminologiyada umumadabiy til so‘z yasalishi vositalarining harakati maxsuslashgan, standart, turg‘un modellarni ishlab chiqishga bo‘ysunadi) [6; 208].

ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М., 1966.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.: Сборник статей по языкоznанию. - М., 1961.-С.3-10.
3. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. - М.: МГУ,1972. - С.68 - 71.
4. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991. №10.- С.1-4.
5. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики.- М.: МГУ,1971.
6. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.- М.,: Наука, 1977.
7. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. –Изд.4-е. Книжный дом: Либроком, 2009.
8. Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов. - М.: Наука, 1971.
9. Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии. Т.1.-М.: Московский лицей, 1994.
10. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. T.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.-B.28-30.
11. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. - London, 1967.
12. Hojiyeva A. Termin tanlash mezoni. 1996.-B. 22-25.
13. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati.- Toshkent: Fan, 2002.